



## XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 26 - dekabr

VI-94-124-7-0-K/23

Samarqand viloyati hokimligi

### **Samarqand viloyatidagi ayrim aholi punktlarini nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4 va 9-moddalariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 6-oktabrdagi (03/08-760сон) va 25-oktabrdagi (03/08-1220сон) ekspertiza xulosalari hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2023-yil 6-sentabrdagi va 23-sentabrdagi yig‘ilish bayonnomalarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, to‘qson to‘rtinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

##### **1. Quyidagilar:**

Oqdaryo tumanidagi aholi punkti nomi 1-ilovaga muvofiq o‘zgartirilsin.

Payariq tumanidagi aholi punktlarining nomlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (T.Mahmudov), viloyat Statistika boshqarmasi (Sh.Abdiyev), Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov), Oqdaryo (Sh.Qudratov) va Payariq tumanlari hokimliklari (I.Jabborov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan aholi punktlari nomlarini belgilangan tartibda statistik hisobotlarda aks ettirilishini va ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (R.Mamatov), Oqdaryo (Sh.Qudratov) va Payariq tumanlari hokimliklari (I.Jabborov) nomlangan aholi punktlariga aholini ro‘yxatga qo‘yish hamda tegishli yo‘l belgilarini o‘zgartirish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (M.Quvondiqov), Oqdaryo (Sh.Qudratov) va Payariq tumanlari hokimliklari (I.Jabborov) birgalikda nomlangan aholi punktlariga belgilangan tartibda zamonaviy talablar asosida peshlavha va ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatalishini ta’minlasin.

5. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi huzuridagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi” MChJ

(N.Norbekov) mazkur qarorni “Zarafshon”, “Самаркандский вестник”, “Овози Самарқанд” gazetalarida chop etilishini hamda Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasiga va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga o’rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022-yil 13-iyundagi VI-65-121-7-0-K/22-son qarori 1-ilovasining 1-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) mazkur aholi punktlari nomlarni **10 kun muddatda** davlat reyestri bazasiga kiritish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Djurakulov) va viloyat hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Sh.Temirov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



E.Turdimov





Xalq deputatlari Samarqand viloyat  
Kengashining  
2023-yil 26-dekabrdagi  
VI-94-124-7-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Oqdaryo tumanidagi nomi o'zgartirilayotgan aholi punktining nomi**

T/r	Geografik obyektning joylashgan o'rni (MFY)	Aholi punktining amaldagi nomi	Qo'yilayotgan yangi nomi	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	"Temirak" MFY	Nurliyo'l	O'rta Nayman	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq



Xalq deputatlari Samarqand viloyat  
Kengashining  
2023-yil 26-dekabrdagi  
VI-94-124-7-0-K/23-son qaroriga  
2-ilova

### Payariq tumanidagi nom berilayotgan aholi punktlari

T/r	Geografik obyektning joylashgan o'rni (MFY)	Nom berilayotgan aholi punktisi	Respublika ekspertiza komissiyasi xulosasi
1.	"Ilg'or" MFY	Maydon	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	"Ilg'or" MFY	Yuqori Oytamg'ali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	"Ilg'or" MFY	O'rta Oytamg'ali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
4.	"Ilg'or" MFY	Quyi Oytamg'ali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
5.	"Boshcho'rash" MFY	Oqtosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
6.	"Guliston" MFY	Pangat	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
7.	"Guliston" MFY	Tepali	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
8.	"Do'stlik" MFY	Alamli	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
9.	"Oqtosh" MFY	Yuqori Oqtosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
10.	"Oqtosh" MFY	Quyi Oqtosh	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq